

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ALISHER NAVOIY MATNLARINI NAZARIY MATNSHUNOSLIK ASPEKTIDA O‘RGANISH MUAMMOLARI

Akrom Malikov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: akrommalik@hotmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlari matnlarini nazariy matnshunoslik aspektida o‘rganish masalalari haqida so‘z borgan. Muallif amaliy va nazariy matnshunoslik haqida to‘xtalgan, Alisher Navoiy matnlarini talqin qilishda shakllanib, rivojlanayotgan zamonaviy sharh uslubi, bu boradagi tajribalarni qayd etgan, ularning umumiy xususiyatlariga munosabat bildirgan, shu orqali nazariy matnshunoslik istilohini, matnni nazariy jihatdan o‘rganish asoslarini yoritib berishga harakat qilgan.*

Kalit so‘zlar. *Matnshunoslik, matnchilik, amaliy matnshunoslik, nazariy matnshunoslik, sharh, kontekst.*

Аннотация: *В данной статье говорится о вопросах изучения текстов произведений Алишера Навои с точки зрения теоретической текстологии. Автор отметил практические и теоретические текстологические исследования, метод интерпретации, который сформировался и развился при интерпретации текстов Алишера Навои, отметил опыт в этом отношении, отреагировал на их общие черты, тем самым попытавшись уточнить термин теоретический. текстоведение, основы теоретического изучения текста.*

Ключевые слова. *Текстология, работы текста, практичная текстология, теоретическая текстология, обзор, контекст.*

Abstract: *This article talks about the issues of studying the texts of Alisher Navoi's works from the aspect of theoretical textology. The author noted down the practical and theoretical textual studies, the method of interpretation that was formed and developed in the interpretation of the texts of Alisher Navoi, noted the experiences in this regard, reacted to their common features, thereby trying to clarify the term theoretical textual studies, the basics of studying the text theoretically.*

Keywords. *Textual criticism, works of text, practical textual criticism, theoretical textual criticism, review, context.*

Alisher Navoiy matnlarining amaliy matnshunoslik prinsip va talablari bilan bir qatorda nazariy matnshunoslik aspektida ham tadqiq etilishi shoir asarlari mohiyatini tushunish, to‘g‘ri talqin qilishda muhim sanaladi, shuningdek, tanqidiy matn tuzish masalasida zarur ahamiyat kasb etadi. [21.11]

Navoiyshunoslikdagi matn va manbalar bilan bog‘liq tadqiqotlarda asosiy masala nusxalarni saralash, tasniflash hamda matnlarni texnik jihatdan qiyoslab chiqish bilan cheklanganiga guvoh bo‘lamiz. Bu tadqiqotlarning barchasini amaliy matnshunoslik yoki matnchilikka oid ishlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Lekin matnshunoslik sog‘lom va istifoda uchun yaroqli nusxalarni tadqiqotga jalb qilish bilan chegaralansa, kutilgan maqsadga erishilmay qolaveradi. Masalan, Alisher Navoiyning bizga ma‘lum bo‘lgan

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

barcha asarlarining turli nusxalardagi matnlarini qiyoslab, shakllangan va qabul qilingan mavjud ilmiy me’yorlar asosida tanqidiy matn shakllantirib chiqilsa, buyuk mutafakkir asarlari ustidagi matnshunoslik tadqiqotlari nihoyasiga yetgandek taassurot paydo bo‘ladi. Holbuki, bunday bo‘lishi mumkin emas, chunki matnshunoslik mohiyatan keng va, masalan, Alisher Navoiy matnlari ustida, hatto butun boshli tadqiqotchilar avlodi ilmiy izlanish bilan mashg‘ul bo‘lsalar ham, yechimini kutayotgan muammo va dolzarb masalar tugamasligi o‘ta tabiiy hol sanaladi.

Haqiqiy mumtoz matn muallif dunyoqarashi, uning ruhiyati, ilmi va hayotiy tajribalari bilan bog‘liq nuqtalarni o‘zida aks ettirishi barobarida uning zamoniga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida kodli tarzda va muallif ixtiyoridan tashqari holda yuzaga kelgan belgilar, ramzlar, ishoralar ko‘rinishida saqlaydi, shuningdek, mumtoz matnda, shubhasiz, umuminsoniy tafakkur kontekstiga ulanib ketadigan nuqtalar mavjuddir. Dunyo adabiyoti konteksti bilan tabiiy ravishda bog‘lanadigan tomirlarni topish hamda boshqa mumtoz ijodkorlar bilan bir fikr, dard va fojia fazosiga mansublikni in’iko ettiradigan qatlamlarni kashf qilish nazariy matnshunoslik muammolari deb qaralishi kerak deb o‘ylaymiz.

Shu ma’noda Alisher Navoiy matnlarini birlamchi manbaga – qadimiy va mo‘tabar nusxalar asosida nazariy matnshunoslik talabalariga ko‘ra tadqiq qilish hamda yig‘ma-qiyosiy yoki tanqidiy matnlar tuzish navoiyshunoslikning kelgusidagi asosiy masalalariga aylanadi degan fikrdamiz.

Ayni paytda Alisher Navoiy asarlarini sharhlash bilan bog‘liq tadqiqotlarda nazariy matnshunoslikka oid ayrim xususiyatlarni kuzatish mumkin. Lekin sharh va matnni nazariy tadqiq qilish o‘rtasidagi chegaralarni aniq va ravshan tasavvur qilib olish bu o‘rinda muhimdir.

Navoiyshunoslikning yaqin yarim asrlik tarixiga nazar solib, buyuk mutafakkir asarlarini zamonaviy sharhlash¹ qoida va an’analari ilk bora akademik Alibek Rustamiy tajribalarida namoyon bo‘la boshlaganiga guvoh bo‘ldik. [20.112] Atoqli alloma ustozning “So‘z haqidagi so‘z” kitobida tilimizdagi bir qancha eski va yangi so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini tahqiq etib, ularning etimologik jihatlariga, foydalanish o‘rinlariga

¹ Zamonaviy sharh ta’rifini ishlatishimizning sababi Musulmon Sharqida Qur’on va hadislar tafsir qilingan, aqiyda, fiqh va tasavvufga oid turli matnlarga sharhlar yozilgan, masalan, imom Abu Mansur Moturidiyning (853 – 944) “Ta’vilotu ahli sunna” kitobi imomi A’zam Abu Hanifa rahmatullohi alayhning (699 – 767) “Fiqh ul-akbar” hamda boshqa olimlarning aqiydagi oid fikrlari, matnlarining sharhidan iboratdir; Burhoniddin Marg‘oniyning (1123 – 1197) “Hidoya” asari Abul Husayn Ahmad ibn Muhammad Quduriy Bag‘dodiy (972–1037) qalamiga mansub “Muxtasar ul-Quduriy” matnlarining sharhi edi; misrlik tasavvuf murshidi ibn Atoullloh Sakandariyning (1260 – 1309) “Hikam ul-Atoiyya” nomli matnlariga yozilgan o‘nlab sharhlar mavjud; mumtoz shoirlarning masnaviyolari, she’rlari ham og‘zaki sharhlab o‘qilgan; “Majolis un-nafois”da sakkizinchi majlis Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan va Alisher Navoiy podshohning devonidagi har bir g‘azalning matla’siga muxtasar sharh yozib chiqqan. Bu sharhlar buyuk shoirning she’rlarini sharhlashda ham yordam berishi shubhasiz.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

diqqat qaratgan, shu asnoda Alisher Navoiy asarlaridan parchalar keltirib, fikrini asoslagan, xususan, “mardum”, “savdo” (16-bet), “nafs”, “his va havvos” (28-bet), “maxluq” (30-bet), “javhar” (35-bet), “bemor” (49-bet), “odamiy” (53-bet), “sahob” (63-bet) va boshqa so‘zlarni tushuntirishga Alisher Navoiyga murojaat qiladi yoki bu so‘zlar izohi bevosita Alisher Navoiy asarlaridagi ma’nolarni yodga soladi.

Alibek Rustamiyning “Adiblar odobidan adablar” kitobidan o‘rin olgan “Yuksak mahorat sohibi” (45-bet), “Xazoyin ul-maoniy”ning fotihasi” (54-bet), “Hamd sarlavhasi” (64-bet), “Ma’naviyyot” (74-bet) nomlari ostida kelgan sharhlari, bizningcha, mumtoz matnlarni sharhlashda maktab vazifasini o‘tash bilan birgalikda matnga nazariy yondashuv masalasida ham ahamiyatlidir. Mazkur sharhlarda olim matnning ichiga, undagi har bir so‘zga kirib boradi, so‘zning matnda tutgan o‘rniga e’tibor beradi, o‘z va ko‘chma ma’nolarni alohida ajratadi, natijada, Alisher Navoiy ijodiga mansub biror matn bo‘lagi bo‘lsin, yo yaxlit g‘azal bo‘lsin, kitobxonda uning mazmuni to‘g‘risida mufassal, qoniqarli va atroflicha ilm hamda tasavvur hosil etadi.

Atoqli olim, ustoz Najmiddin Komilovning “Ma’nolar olamiga safar” kitobi [18] Alisher Navoiy matnlarini sharhlash tajribalarini umumlashtirgan, ixcham va tartibli shakldagi sharhlarni taqdim etgan ilk yirik tadqiqot deb aytishimiz mumkin. Mazkur kitobda buyuk shoirning 50 ta g‘azali sharhini o‘qiymiz, ammo seziladiki, olim sharhda Alisher Navoiy devonlaridagi barcha matnlarni tartibli va tizilim tushuntirishni zimmasiga olmagan, balki kitobda turli yillarda yuzaga kelgan ishlar jamlangan.

Mazkur tajribalar Alisher Navoiy matnlarini qanday sharhlash mumkin yoki qanday sharhlash kerak degan savolga nisbatan bo‘lsa ham javob berdi va navoiyshunoslikda bu boradagi ishlarni tizimli hamda shoir asarlarini tartibli ravishda qamragan holda amalga oshirilishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Filologiya fanlari doktori Boqijon To‘xlijev mas’ul muharrirligi hamda tashabbusi ostida amalga oshirilgan o‘n jilddan iborat “G‘aroyib us-sig‘ar”: g‘azallarning sharh va izohlari” loyihasi Alisher Navoiy matnlarini sharhlashdagi yirik tadqiqotlardan ekanligi shubhasizdir. Mazkur o‘n jildlik nashrda Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqulov, Boqijon To‘xlijev, Vahob Rahmonov, Ergash Ochilov, Olimjon Davlatov, Dilnavoz Yusupova, Zuhra Mamadalieva, Durdon Zohidova, Qodirjon Ergashev, Muqaddasxon Tojiboeva, Rashid Zohidov, Karomat Mullaxo‘jaeva, Akrom Dehqonov, Akrom Malik, Nazora Bekova, Sofiya Jumaeva, Ozoda Boltaboeva, Husniddin Eshonqulov, Sirdaryo O‘tanova, Ozoda Tojiboeva, Diyora Abdujalilova, Shohsanam Abdumannopova va boshqa mualliflarning sharhlari jamlangani Alisher Navoiyni tushunish va tushuntirishga oid va, umuman, navoiyshunoslikdagi tajriba va yutuqlarni nisbatan bo‘lsa ham o‘zida aks ettirgan deb xulosa qilishga yetaklaydi. Bu fikrimizda nisbiylik

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

bor, albatta, chunki mazkur izlanishlar manzarasida Alisher Navoiy matnlarini muayyan tadqiqotchilar tomonidan tizimli va davomli sharhlash ishlariga qadam qo‘yildi, xususan, Olimjon Davlatovning “Ma’nolar xazinasi” [11., 12., 13., 14.] nomli kitobi hamda mazkur satrlar muallifining uch jilddan iborat “Hayrat ul-abror” dostoni sharhi [15., 16., 17.] bu an‘ananing ilk ko‘rinishlari sanaladi deb aytish mumkin.

Alisher Navoiy matnlarini sharhlashga oid tajribalarni kuzatsak, quyidagi xususiyatlarni ko‘ramiz:

1. Shoirning muayyan asari matni tanlab olinadi. E’tiborli va e’tirozli jihati shuki, bu matn ilmiy-ommabop nashrlar asosida istifoda qilinadi, ammo tadqiqotchi birlamchi manbaga suyansa, ishning ishonchlilik darajasi oshgan bo‘lardi.

2. Matndagi notanish so‘zlar va ularning ma’nolari nashrdan chiqqan Navoiy asarlari lug‘atlari asosida taqdim qilinadi.

3. Matnning zamonaviy tildagi nasriy bayoni beriladi.

4. Matnning sharhi matn chizig‘idan chiqmagan tarzda beriladi, bunda asosan, shoir aytayotgan fikr, tasvirlayotgan manzara kengroq ochiladi, matn ostiga berkingan ma’nolar ko‘rsatiladi. Mazkur sharhlarda asosiy to‘ldirilishi kerak bo‘lgan nuqta, bizningcha, shuki, muallifning hech bir so‘zi, hech bir ifodasi diqqatdan chetda qolmasligi kerak; ikkinchidan, shorih o‘zi anglay olmagan bayt yoki misrani aniq ko‘rsatishi lozim, turli nusxalarni ko‘rganini ma’lum qilgan holda qoniqarli xulosa chiqara olmasa, aytsin va gapni umumlashtirib ketmasin; uchinchidan, matndan umumiy xulosani yaxlitlab, shoirning ko‘zda tutgan maqsadini anglashga va anglatishga urinsin. Agar anglashda murakkablik tug‘ilsa, bu murakkablik she’riy matnning qurilishiga (murakkab ifodaga), lug‘atda so‘zning topilmagani yoki nusxalardagi noaniqliklarga bog‘liq ekanligini bildirib qo‘ysin. Ammo biz deyarli biror sharhda bu holatni kuzatmadik, aksincha, murakkablik tug‘diradigan baytlar umumiy jumlar bilan sharhsiz qoldirilganiga guvoh bo‘ldik. Yana bir jihati shuki, aksar sharhlarda biror so‘z izohi yoki muayyan ma’lumot taqdim qilinarkan, tayanilgan manbaga havolalar berilmaydi yoki manba nomi zikr etilsa ham aniq manzili – qo‘lyozma bo‘lsa, inventar raqamlari, nashr bo‘lsa, chop etilgan sana, joy, nashriyot va sahifalar ko‘rsatilmaydi. Bu hol ham tadqiqotning ilmiy quvvatiga biroz bo‘lsa-da soya solishini nazardan qochirib bo‘lmaydi. Shuningdek, aksar sharhlarda Alisher Navoiy matnlarining bir-biridan farqlanuvchi xos jihatlari diqqat qaratilmaydi, masalan, g‘azal sharhlashda baytning nasriy bayonini biroz kengaytirish kuzatiladi, xolos, shorih buning sababini umumiy tarzda aytib o‘tishiga ehtiyoj bordek tuyuladi, agar Alisher Navoiy barcha g‘azallarida bir tuyg‘u yoki fikrni turli shakllarda takrorlagan bo‘lsa, buni ham oydinlashtirish lozim, yoki o‘z g‘oyasini aytish uchun doimiy ravishda qolip sifatida foydalangan badiiy

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

shakllari bor bo‘lsa, buni ham aniqlashtirish va asoslash kerak. Xulosa qilib aytganda, navoiyshunoslikda so‘nggi yillarda paydo bo‘lib, rivojlanib kelayotgan sharh uslubi nazariy matnshunoslikka xos hodisa hisoblanadi, ammo u ayni paytda Alisher Navoiy matnlarini sof nazariy asoslarda o‘rganishdan farqlanadi. Yana shuni ta’kidlash kerakki, sharhlar vazifasiga ko‘ra ilmiy-ommabop va soddaroq bo‘lishi lozim, bu jihat ham matnni nazariy tahlil qilishdan farqlovchi asosiy nuqtadir. Nazariy matnshunoslik esa sof akademik va ilmiy yo‘nalish bo‘lib, bu boradagi tadqiqotlar ommaga emas, balki ilm kishilari uchun mo‘ljallanadi hamda fundamental masalalar bilan shug‘ullanadi.

Matnni nazariy tadqiq qilishning sharhdan farq qiluvchi xususiyatlaridan yana biri shuki, avvalo, bunda tadqiqotchi matnni umumiy asar kontekstidan “uzib” olmaydi. Masalan, Alisher Navoiy devonidagi biror g‘azal matni tadqiqqa tortilarkan, matnshunos bu matnni devon kontekstining ajralmas qismi yoki bir tananing a‘zosi kabi ko‘radi. Ikkinchidan, undagi ma’nolarni boshqa matn ma’nolari bilan bog‘liq holda tushunishga intiladi. Uchinchidan, tanlangan kontekstning turli qismlaridagi umumiyliklarni shakllantirib oladi. Shoir qo‘llagan she’riy san’atlar, ilgari surgan g‘oyalar, matnlarda muammo, uning sabab va yechimlarga oid nuqtalarni aniqlashtiradi. Shu tariqa Alisher Navoiy devonlaridagi yoki dostonlaridagi mohiyat, shoir aytishni istagan haqiqat yaxlit tizim ko‘rinishida to‘liq namoyon bo‘ladi.

Demak, Alisher Navoiy matnlarini nazariy matnshunoslik kontekstida o‘rganishning hozircha shartla ravishda uch xil shaklini tasavvur qilishimiz mumkin:

1. Sharh uslubi – Alisher Navoiyning muayyan janrdagi asarini keng kitobxonlar ommasini nazarda tutgan holda shu asar matni doirasidan chiqib ketmagan holda tahlil qilish. Bu borada ayrim tajribalarni qayd etib o‘tdik.

2. Matnlar mazmunini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish uslubi – Alisher Navoiyning muayyan devonidagi turli janrdagi she’rlarni yoki turli asarlaridagi matnlarni o‘zaro muqoyasa qilib, chegaralangan mavzu bobida umumiy nuqtalarini topish. Bu intertekstual yoki kontekstual tahlil metodlari asosida amalga oshiriladi.

3. Matnlarni shakliy va badiiy jihatdan tahlil qilish – bu Alisher Navoiy asarlarining janr xususiyatlari, badiiy san’atlar va ularning ma’noda ifodasidagi o‘rniga diqqat qaratgan holda matnni tadqiq etishdir.

Umuman olganda, matn nazariyasi, nazariy matnshunoslik, Alisher Navoiy matnlarini nazariy jihatdan o‘rganish asoslarini ishlab chiqish, uning adabiyot nazariyasi hamda germenevtika bilan kesishadigan va tafovut hosil etadigan xususiyatlarini aniqlash, mavjud tajribalardagi qoida va mezonlarni tizimlashtirish muammosi kelgusi tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan sanaladi.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. “Ғаройиб ус-сиғар”. Ғазалларнинг шарҳлари ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 1-жилд. Т.: “O‘ZKITOBSAVDO”, 2020. – 220 б.
2. Алишер Навоий. “Ғаройиб ус-сиғар”. Ғазалларнинг шарҳлари ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 2-жилд. Т.: “O‘ZKITOBSAVDO”, 2020. – 252 б.
3. Алишер Навоий. “Ғаройиб ус-сиғар”. Ғазалларнинг шарҳлари ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 3-жилд. Т.: “O‘ZKITOBSAVDO”, 2020. – 260 б.
4. Алишер Навоий. “Ғаройиб ус-сиғар”. Ғазалларнинг шарҳлари ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 4-жилд. Т.: “O‘ZKITOBSAVDO”, 2020. – 258 б.
5. Алишер Навоий. “Ғаройиб ус-сиғар”. Ғазалларнинг шарҳлари ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 5-жилд. Т.: “O‘ZKITOBSAVDO”, 2020. – 242 б.
6. Алишер Навоий. “Ғаройиб ус-сиғар”. Ғазалларнинг шарҳлари ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 6-жилд. Т.: “O‘ZKITOBSAVDO”, 2020. – 254 б.
7. Алишер Навоий. “Ғаройиб ус-сиғар”. Ғазалларнинг шарҳлари ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 7-жилд. Т.: “O‘ZKITOBSAVDO”, 2020. – 262 б.
8. Алишер Навоий. “Ғаройиб ус-сиғар”. Ғазалларнинг шарҳлари ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 8-жилд. Т.: “O‘ZKITOBSAVDO”, 2020. – 250 б.
9. Алишер Навоий. “Ғаройиб ус-сиғар”. Ғазалларнинг шарҳлари ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 9-жилд. Т.: “O‘ZKITOBSAVDO”, 2020. – 278 б.
10. Алишер Навоий. “Ғаройиб ус-сиғар”. Ғазалларнинг шарҳлари ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 10-жилд. Т.: “O‘ZKITOBSAVDO”, 2020. – 290 б.
11. Алишер Навоий. Маънолар хазинаси [Матн] Ж. 1: асар / О. Давлатов. – Т.: Tamaddun, 2021. – 332 б.
12. Алишер Навоий. Маънолар хазинаси [Матн] Ж. 2: асар / О. Давлатов. – Т.: Tamaddun, 2021. – 360 б.
13. Алишер Навоий. Маънолар хазинаси [Матн] Ж. 3: асар / О. Давлатов. – Т.: Tamaddun, 2021. – 320 б.
14. Алишер Навоий. Маънолар хазинаси [Матн] Ж. 4: асар / О. Давлатов. – Т.: Tamaddun, 2023. – 312 б.
15. Алишер Навоий: “Ҳайрат ул-аброр” (Матн, шарҳ, насрий баён, луғат) / Биринчи китоб: муқаддима / А. Малик. – Т.: Tamaddun, 2021. – 472 б.
16. Алишер Навоий: “Ҳайрат ул-аброр” (Матн, шарҳ, насрий баён, луғат) / Иккинчи китоб: 1 – 10-мақолатлар / А. Малик. – Т.: Tamaddun, 2021. – 528 б.
17. Алишер Навоий: “Ҳайрат ул-аброр” (Матн, шарҳ, насрий баён, луғат) / Учинчи китоб: 11 – 20-мақолатлар ва хотима / А. Малик. – Т.: Tamaddun, 2021. – 596 б.
18. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: Tamaddun, 2012. – 316 б.
19. Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. – Т.: Маънавият, 2003. – 112 б.
20. Рустамов А. Сўз ҳақида сўз. – Т.: “Ёш гвардия”, 1987. – 160 б.
21. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Т.: Navoiy universiteti, 2019. – 128 б.